

FIZIKA FANINI IJTIMOY-GUMANITAR YO'NALISHLARDA O'QITISHNING USLUBIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishida fizika fanining o'qitilishi, albatta, fizika fanini chuqur o'rganishga qaratilmagan, ammo uning muhim tushunchalari va qonuniyatlari talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va turli sohalardagi bilimlarni umumlashtirishga yordam beradi. Fizikaning asosiy tushunchalari va qonunlari, jumladan, harakat, kuch, energiya, elektromagnitizm va boshqalar turli xil ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'lanishi mumkin. Bu esa talabalarning fanlararo bog'liqliklarni tushunishiga va bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Interaktiv usullar, tarixiy qurilmalar, o'qitish prinsiplari, o'qitishning qonuniyatlari.*

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING PHYSICS IN SOCIAL AND HUMANITARIAN EDUCATION

Abstract: *The teaching of physics in the field of social and humanitarian education is not primarily aimed at in-depth study of physics, but its key concepts and principles help broaden students' worldview, develop logical thinking, and integrate knowledge across various disciplines. Fundamental concepts and laws of physics, including motion, force, energy, electromagnetism, and others, can be*

connected with different social and humanitarian subjects. This approach facilitates students' understanding of interdisciplinary relationships and enables them to apply knowledge in practical contexts.

Keywords: *Interactive methods, Historical devices, Teaching principles, Laws of teaching*

Kirish

O'qitish prinsiplari (prinsip – lotincha so'z bo'lib, asos boshlanish degan ma'noni bildiradi) – o'qitish jarayonini tashkil qilishning asosiy rejalari, yetaklovchi g'oyalaridir. Ular o'qitishni tartibga soluvchi umumiy ko'rsatmalar, talablar, rejalar, normalar tarzida bo'ladi. O'qitish prinsiplari o'qitishning asosiy qonuniyatlaridan kelib chiqadi.

O'qitishning qonuniyatlari – bilim berishdagi hodisalar o'rtasidagi zaruriy va obyektiv, ma'noli hamda takrorlanuvchi bog'lanishlardir. O'qitishning qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

1. O'qitish jarayoni jamiyatning hamda har bir o'quvchining talabiga mos kelishi kerak.
2. O'qitish jarayoni bilim berish, tarbiyalash hamda rivojlantirish funksiyalarini bajarishi kerak.
3. O'qitish jarayoni o'quvchilarning haqiqiy o'quv imkoniyatlariga mos kelishi kerak.
4. O'qitish jarayoni unga ta'sir qiluvchi tashqi shartlarga bog'liqdir:
 - O'qitish va o'quv jarayoni birgalikda pedagogik qonuniyatlarga bo'ysunib, bir-biri bilan mustahkam bog'lanishda
 - O'qitishning mazmuni o'qitishning maqsadiga bevosita bog'liq bo'lib, u o'z navbatida, jamiyatning talabi, ilm-fanning rivojlanishi, o'quvchilarning imkoniyatlari hamda tashqi shartlar asosida aniqlanadi.
 - O'qitish metodlari hamda vositalari o'qitishning maqsadiga hamda mazmuniga bo'g'liqdir.

- O'qitish jarayonining barcha komponentlari orasidagi to'g'ri bog'lanish va tuzilgan qulay shart-sharoit, uning ijobiy natijasini ta'minlaydi.

- O'qitish, o'quvchining psixologik xususiyatlariga, shaxsiy qulayligiga, kelajakdagi rivojlanish darajasiga mos holda olib borilishi kerak.

Boshqa fanlar qatori fizika fani qayerda o'rgatilishidan qat'iy nazar, istalgan ta'lim tizimlarida o'qitishning uzviyligi va davomiyligini ta'minlanishi, kelgusida yetuk mutaxassislar tayyorlashni muhim omili bo'lmog'i lozim. Aksariyat mutaxassislar o'z kasbiy fanlarini chuqur egallashlarida, asosiy rolni fizika fanining o'quv mazmunini o'zlashtirish darajasi tashkil etadi.

Asosiy qism.

Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishida fizika fanining o'qitilishining asosiy maqsadlari:

- **Fizikaviy tushunchalarni o'rganish:**

Talabalarga fizikaning asosiy qonunlari va tushunchalari haqida tushuncha berish. Bu ularning tabiat hodisalarini tushunishlariga yordam beradi va dunyoqarashini kengaytiradi.

- **Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish:**

Fizika fanini o'rganish talabalarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa ularga dalillarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va muammolarni hal qilishga yordam beradi.

- **Fanlararo aloqalarni o'rnatish:**

Fizikaning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liqliklarini ko'rsatish. Masalan, tarixda texnologiyaning rivojlanishi, huquqda esa fizika qonunlariga asoslangan texnologiyalarning qo'llanilishi kabi.

- **Amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish:**

Fizikadan olingan bilimlar talabalarga kundalik hayotda va keyingi kasbiy faoliyatida duch keladigan turli xil vaziyatlarni tahlil qilish va hal qilishga yordam beradi.

- **Ta'limning sifatini oshirish:**

Fizika fanining asosiy tushunchalari bilan tanishish talabalarning umumiy ta'lim darajasini oshiradi va ularni keyingi ta'lim olishlariga tayyorlaydi.

Fizika fani bo'yicha o'qitish usullari:

- **Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar:**

Fizika qonunlari va tushunchalari ma'ruzalarda o'rgatiladi, amaliy mashg'ulotlarda esa talabalar olgan bilimlarini mustahkamlaydilar.

- **Tarixiy misollar:**

Fizikaga oid tarixiy voqealar va kashfiyotlar talabalarning qiziqishini oshiradi.

- **Interaktiv usullar:**

Munozaralar, savol-javoblar va guruhli ishlar talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

- **Tegishli adabiyotlar:**

Ijtimoiy-gumanitar fanlar talabalari uchun moslashtirilgan fizika darsliklari va qo'llanmalardan foydalanish.

Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishida fizika fanining o'qitilishi, o'quvchilarga ilmiy tafakkur va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayonda fizika fanining asosiy nazariyalarini va amaliyotlarini gumanitar fanlar bilan integratsiyalash orqali o'qitish muhim ahamiyatga ega.

- Integratsiya: Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishida fizika fanini o'qitishda, fizika va gumanitar fanlar o'rtasida bog'lanish o'rnatish zarur. Bu, o'quvchilarga fizika qonunlarini tushunish va ularni ijtimoiy hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

- Ilmiy tafakkur: Fizika fanining o'qitilishi, o'quvchilarda ilmiy tafakkur va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar, o'quvchilarning muammolarni hal qilishda va yangi g'oyalarni ishlab chiqishda muhimdir.

O'qitish metodlari

- *Интерактив методлар*: O'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Masalan, tajribalar, guruhli muhokamalar va loyiha asosidagi o'qitish usullari orqali o'quvchilar fizika fanining amaliy jihatlarini o'rganadilar.

- *Гуманитар контекст*: Fizika fanini o'qitishda гуманитар kontekstni kiritish, o'quvchilarga fizika qonunlarini ijtimoiy masalalar bilan bog'lash imkonini beradi. Bu, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va fanlarni o'zaro bog'lashga yordam beradi.

O'qituvchilarning roli

- *Педагогик маҳорат*: O'qituvchilar, fizika fanini o'qitishda pedagogik mahoratga ega bo'lishlari zarur. Ular, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni motivatsiya qilish uchun turli metodlardan foydalanishlari kerak.

- *Иновацион yondashuvlar*: O'qituvchilar, innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatishlari mumkin. Bu, o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar bo'lishlariga tayyorlaydi.

Natijalar

- *Келajakdagi imkoniyatlar* Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishida fizika fanini o'qitish, o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi. Ular, fizika fanidan olingan bilimlarni turli sohalarda, jumladan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy tadqiqotlarda qo'llashlari mumkin.

- *Физика ва гуманитар fanlar o'rtasidagi bog'lanish*: O'quvchilar, fizika fanini o'rganish orqali гуманитар fanlar bilan bog'liq masalalarni yanada chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu, ularning umumiy bilim darajasini oshiradi va ijtimoiy masalalarga yanada kengroq nuqtai nazardan qarashlariga yordam beradi.

Akademik litseyning ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchilarga fizika fani mavzusiga oid hodisalarning voqeilikning kelib chiqish tarixining matnini berib ulardan baholash tizimini quyidagi ketma ketlik asosida talab qilinsa, ularning tarixiy voqealikning bilish qobiliyati oshadi.

Baholash sharti	Ball	reyting
<i>Tarixiy qurilmaning kim tomonidan asoslanlgan bilish</i>	1	
<i>Tarixiy qurilma ixtiro etgan shaxs haqida ma'lumot berish</i>	1	
<i>Qurilmaning bunyod etilgan davri yoki sanasini bilish</i>	1	
<i>Qurilmaning yaratilgan geografik joyini bilish</i>	1	
<i>Qurilma qaysi tarixiy davrga mansubligini bilish</i>	1	
<i>Qurilmaning nima(yoki qanday voqea) munosabat bilan yaratilganligini bilish</i>	1	
<i>Qurilma bunyod etilgan davrda hukmronlik qilgan hukumatini bilish</i>	1	
<i>Qurilmaning yaralishida ishlatiladigan ashyolarni bilish</i>	1	
<i>Qurilmaning tashqi va ichki ko'rinishlarni yoritib berish</i>	1	
<i>Qurilmaning uslubini yoritish</i>	1	
<i>Qurilmaning o'ziga xos tomonlarini (boshqa qulmalarda farqi) ko'rsatish</i>	1	
<i>Qurilmaning bugungacha bo'lgan holatlarni va hzirgi holati haqida ma'lumot berish</i>	1	
<i>Qurilmaga O'zbekiston hukumati yoki xalqaro tashkilotlari tomonidan qaratilayotgan e'tiborni yoritish</i>	1	
<i>Qurilmaning qanday vazifani bajarganligini yoritish</i>	1	
<i>Fizik atamalardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish</i>	1	

Xulosa:

Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix-huquq) yo'nalishida fizika fanining o'qitilishi talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va fanlararo aloqalarni o'rnatishga yordam beradi. Fizikaning asosiy tushunchalari va qonunlari haqida bilimga ega bo'lish talabalarni keyingi ta'lim olishlari va kasbiy faoliyatlari uchun tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Agzamov, A.Yusupov. «O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish». Toshkent, 2004 y.
2. A.Yusupov, M.Qodirov. «Fizika darslariga innovatsion pedagogik texnologiya elementlarini qo'llash». Andijon, 2004 y.
3. J.O. Yuldashev, E.U. Abdurahmonov, Dj.Dj. Kurbanov. Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix-huquq) ta'lim yo'nalishida fizika fanining o'qitilishi./ TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI mavzusidagi Respublika ilmiy, o'quv anjumani. 27-28-aprel 2018. 241-242 b.